

MAXSUS EHTIYOJLI O'QUVCHILAR UCHUN TA'LIM: INKLUZIV YONDASHUV VA METODOLOGIYASI

DTPI Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Maxmudov Shokir

Denov tadbirkorlik va pedagogika

Instituti Filologiya fakulteti talabasi

Nurmamatova Mehribon

Email: Sanjardaminov52@gmail.com

Tel raqam: +998977861636

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maxsus ehtiyojli o'quvchilar (MEO') uchun ta'lim tizimidagi inklyuziv yondashuvning ahamiyati, metodologik yondashuvlar hamda ularning amaliyotdagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, pedagogik metodlar va zamonaviy yondashuvlar IMRAD tizimi asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyojli o'quvchilar, metodologiya, adaptatsiya, didaktika.*

Kirish

So'nggi yillarda butun dunyoda, xususan, O'zbekistonda ta'lim sohasida barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, maxsus ehtiyojli o'quvchilarning umumiy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi – ya'ni inklyuziv ta'lim konsepsiyasi dolzarb masalaga aylangan. Inklyuziv ta'lim bu – imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qitish tizimidir. Mazkur maqolada MEO' uchun ta'limda qo'llaniladigan yondashuvlar, metodlar va ularning amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi insonparvarlik, teng imkoniyat va har bir shaxsning rivojlanish huquqiga asoslangan yangi bosqichga

ko'tarilmoqda. Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim — bu shunchaki maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga qo'shish jarayoni emas, balki ta'lim falsafasining o'zgarishi, inson qadriyatlariga yangi nigoh bilan qarash demakdir.

Nazariy asoslar

Inklyuziv ta'limning mohiyati — har bir bola, u qanday jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy farqlarga ega bo'lishidan qat'i nazar, o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladigan muhit yaratishdir.

Inklyuziv ta'limning nazariy poydevori insonparvarlik (gumanizm) g'oyasiga tayanadi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir bola noyob, takrorlanmas shaxs bo'lib, u o'z qobiliyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur'atiga ega.

Inklyuziv ta'lim g'oyasi XX asrning ikkinchi yarmida, inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida shakllangan. Uning nazariy poydevori quyidagi asosiy yo'nalishlarga tayanadi:

1. **Sotsial konstruktivizm nazariyasi** — bu nazariya insonlarni o'zaro ijtimoiy munosabatlar orqali rivojlanishini ta'kidlaydi. Inklyuziv ta'limda barcha o'quvchilarning birgalikda o'qishi, o'zaro muloqoti va hamkorligi orqali o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

2. **Vigotskiy nazariyasi (ZPR — yaqin rivojlanish zonasi)** — Vigotskiyga ko'ra, bola rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchisi bu — ijtimoiy muhit va qo'llab-quvvatlovchi ta'limdir. Inklyuziv ta'limda sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalar birgalikda o'qiganda, bu ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini tezlashtiradi.

3. **Differensial ta'lim nazariyasi** — bu yondashuv har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim tashkil etilishini taqozo etadi. Inklyuziv ta'limda aynan shu tamoyil asosida har bir bola uchun qulay o'quv muhiti yaratiladi.

4. **Ekologik tizimlar nazariyasi (Bronfenbrenner)** — bolalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar (oilalar, maktab, jamiyat) tizimli tarzda

ko'rib chiqiladi. Inklyuziv ta'limda barcha bu omillar o'zaro uyg'unlikda ishlashi zarur.

5. **Inson huquqlari va teng imkoniyatlar tamoyili** – BMTning “Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi” (2006) va boshqa xalqaro hujjatlar inklyuziv ta'limning huquqiy va axloqiy asoslarini belgilaydi. Har bir bola, imkoniyatidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqiga ega.

Ta'lim jarayoni esa bu farqlarni yashirish emas, balki ulardan kuchli tomon sifatida foydalanishni o'rgatishi kerak.

Inklyuziv muhitda o'qituvchi — bilim manbai emas, yo'l ko'rsatuvchi, hamroh. O'quvchi, ota-ona va pedagog o'rtasidagi hamkorlik bola muvaffaqiyatining garovidir. Bu tizimda “men” emas, “biz” tushunchasi yetakchilik qiladi.

Hamkorlik pedagogikasi (kooperativ pedagogika) – bu o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati asosida ta'limiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, ayniqsa **inklyuziv muhitda** samarali hisoblanadi. Bu pedagogik model har xil imkoniyatga ega o'quvchilarni teng huquqli subyekt sifatida tan oladi va ta'lim jarayonida o'zaro yordam, qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi va asosiy tamoyillari sifatida quydagilardi keltirish mumkin: a) **Tenglik va hurmat** – har bir o'quvchi, uning aqliy yoki jismoniy imkoniyatidan qat'i nazar, jamoaning teng a'zosi sifatida qabul qilinadi; b) **O'zaro bog'liqlik** – topshiriqlar shunday tashkil etiladiki, har bir ishtirokchining hissasi umumiy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi; v) **Faol ishtirok** – barcha o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llaydi, passiv tinglovchi emas, faol ishtirokchi bo'lishi rag'batlantiriladi. G) **Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish** – guruhda ishlash, fikr bildirish, muhokama qilish orqali o'quvchilar o'zaro muloqot qilishni o'rganadilar.

Har bir bolaning o'rganish turlicha — kimdir eshitib, kimdir ko'rib, kimdir harakat orqali yaxshiroq o'rganadi. Shu bois darslar ko'rish, eshitish va

sezish orqali tashkil etiladi. Bu metod barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etadi. Bunda, moslashtirilgan muhit – sinf xonalari jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay bo'lishi kerak. Psixologik qo'llab-quvvatlash – o'qituvchining so'zlari, ohangi, munosabati bolaning o'ziga ishonchini shakllantiradi. O'rnak muhit – sog'lom o'quvchilar maxsus ehtiyojli tengdoshlari bilan muloqot orqali bag'rikenglikni o'rganadilar. Insoniy qadriyatga tayanish – har bir bola qadrligi, u natijasi bilan emas, o'z mavjudligi bilan ahamiyatli.

Interaktiv dasturlar va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari maxsus ehtiyojli bolalar uchun individual dars rejalarini yaratishda yordam beradi.

VR (virtual haqiqat) texnologiyalari orqali bolalar real hayotdagi vaziyatlarni xavfsiz sharoitda o'rganadilar. Gamifikatsiya — o'yin elementlari orqali o'qitish motivatsiyani oshiradi, ayniqsa autizm spektridagi bolalar uchun samarali usuldir. Jamiyatda inklyuziv ta'limning ildiz otishi uchun avvalo kattalar dunyosidagi stereotiplar o'zgarishi kerak. Bolalar ko'pincha muammosiz qabul qiladi, lekin kattalar chegaralar chizadi.

Inklyuziv ta'limda hamkorlik pedagogikasi nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Turli imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarning bir guruhda ishlashi o'zaro tushunish, bag'rikenglik va hurmat kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Hamkorlik metodlari orqali har bir o'quvchining kuchli tomonlari yuzaga chiqadi va o'quv muhiti ijobiy, inklyuziv tamoyillarga asoslangan bo'ladi. Shu bois, inklyuziv ta'limda samarali natijalarga erishish uchun hamkorlik pedagogikasini doimiy ravishda amaliyotga joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratish to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2021.
3. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Policy and Practice. – Paris, 2017.
4. Махмудов, Ш. К. (2021). Профессионализм и формирование педагогических способности. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 45-50.
5. Kamolovich, M. S., & Isakovich, O. R. F. (2023). Inklyuziv ta'limning shaxs shakillanishidagi ahamiyati. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 277-279.